



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI HOKIMINING
Q A R O R I

Termiz shahri, At-Termiziy ko‘chasi 1-uy. 190100, tel.: (+99876) 224-00-15, surxon@exat.uz, gov@sdv.uz

2024 - yil 3 - fevral

110-8-0-Q/24

Surxondaryo viloyati hokimligi

**Denov, Oltinsoy, Bandixon va Qumqo‘rg‘on tumanlari hududidan “Suv inshootlari”
qurilishi uchun yer maydonlari ajratish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 5-moddasi, Vazirlar Mahkamasining “Yer uchastkalarini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma‘muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida” 2021-yil 27-avgustdagi 543-son qarori va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-maydagi PQ-164-son qaroriga asosan, “Suv ta‘minoti va oqova suv obyektlari qurilishi bo‘yicha injiniring kompaniyasi” UK Surxondaryo viloyati hududiy boshqarmasining 2024-yil 17-yanvardagi 14-sonli xatini hamda “YERELEKTRON” AATga maxsus ID raqami bilan kiritilgan (ilovaga muvofiq) yer uchastkalariga tegishli tashkilotlar tomonidan berilgan xulosalarni inobatga olib,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Suv inshootlari qurilishi uchun tuman hokimliklari zaxirasidagi qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan yer maydonlari ilovaga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Surxondaryo viloyati hududiy boshqarmasiga doimiy foydalanish huquqi bilan ajratilsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Surxondaryo viloyati hududiy boshqarmasi ajratilgan yer maydonlarini suv inshootlari qurish va foydalanish uchun “Surxondaryo Suv ta‘minoti” mas‘uliyati cheklangan jamiyatiga ijaraga berilishini ta‘minlasin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi Surxondaryo viloyati boshqarmasi (M.Abdiraxmanov)ga ajratib berilgan yer maydonidan samarali va maqsadli foydalanilishini doimiy nazorat qilib borish yuklatilsin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining Davlat kadastrlari palatasi Surxondaryo viloyati boshqarmasi (S.Shaymardanov) yer chegaralarini joyida (naturada) belgilashni amalga oshirsin va yer hisobotiga tegishli o‘zgartirish kiritish hamda yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishini ta‘minlasin.

5. Viloyat Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasi (A.Abduraximov)

qonunchilikda belgilangan tartibda qurilish ishlarining loyiha-smeta hujjatlariga muvofiqligini monitoring qilib borsin.

6. Mazkur qaror bir kun muddatda viloyat hokimligining rasmiy veb-sayti (surxondaryo.uz)da e'lon qilinsin.

7. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o'rinbosari A.Amirov zimmasiga yuklansin.

Surxondaryo viloyat hokimi



U.B.Qosimov

Surxondaryo viloyat hokimining
2024-yil 3-fevraldagi
110-8-0-Q/24-son qaroriga
1-ilova

№	Hudud nomi	Yer maydoni joylashgan mahalla nomi	Yer maydonining dala kontur raqami	Ajratilayotgan yer maydoni (ga)	Yer maydonining “YERELEKTRON” AATda ID raqami
1	Denov tumani	“Yangiobod” MFY	294q	2,67	A1722210051/1
2	Oltinsoy tumani	“Mingchinor” MFY	244q	0,68	A1722201028/4
3	Qumqo‘rg‘on tumani	“Davlatsoy” MFY	422b	2,70	A1722214034/2
4	Bandixon tumani	“Navro‘z” MFY	211q	0,96	A1722203012/1